

Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi

“Profi University” Navoiy filiali

“Pedagogika va chet tillar” kafedrası

pedagogika fanlari bo‘yicha

falsafa doktori (PhD)

axmedovad902@gmail.com

KREDIT-MODUL TIZIMLARINING MAMILAKATIMIZ VA XORIJIY DAVLATLARDAGI TAJRIBASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishning maqsad va vazifalari, na’munaviy nizomi hamda Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSH hamda O’zbekiston respublikasining kredit tizimlarining qiyosiy tahlili yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqil ta’lim, kredit birliklar, akademik yil, o‘quv yuklama, motiv, mustaqil faoliyat, auditoriya mashg‘ulotlari, raqamli va harfli baholash, maqsad va vazifa.

ОПЫТ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНЫХ СИСТЕМ В НАШЕЙ СТРАНЕ И ЗА РУБЕЖОМ

Аннотация. В данной статье представлена информация о целях и задачах организации самостоятельного образования студентов, типовом уставе и сравнительном анализе кредитных систем Великобритании, Японии, США и Республики Узбекистан.

Ключевые слова: независимое обучение, кредит единицы, академический год, учебная нагрузка, мотив, независимая деятельность, обучение аудитории, цифровая и буквенная оценка, цель и задача.

EXPERIENCE OF CREDIT-MODULE SYSTEMS IN OUR COUNTRY AND FOREIGN COUNTRIES

Annotation. This article provides information on the goals and objectives of organizing independent education of students, the model charter and comparative analysis of credit systems of the United Kingdom, Japan, the United States and the Republic of Uzbekistan.

Keywords: Independent Education, credit units, academic year, academic load, motive, independent activity, audience training, digital and letter assessment, goal and mission.

Zamonaviy oliy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri globallashuv davrida o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, innovatsion faoliyatga qodir bo‘lgan ijodkor mutaxassisni shakllantirish sanaladi. O’zbekiston Respublikasida Harakatlar strategiyasi talabiga muvofiq talabalarning mustaqil ishini tashkil etishga katta e’tibor berib kelinmoqda. Shu bilan birga, tushunishimiz kerakki, mustaqil ta’lim samaradorligiga erishish tizimli va keng qamrovda maqsadli harakatlar orqali hal qiliniladi. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2005-yil 21-fevraldagagi “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish to‘g‘risida”gi 34-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risida”gi Na’munaviy nizom”da ham o‘z aksini topadi [1]. Ta’lim olayotgan talabalarda mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik madaniyatni takomillashtirishga chorlovchi omil sifatida shakllantirish lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida talabalar pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi. Talabalarda mustaqil ta’lim olishga qiziqish uyg‘otuvchi kuch, motiv sabablarga bog‘liq holda ular o‘z oldilariga mustaqil ta’lim mazmunini tashkil etuvchi maqsad va vazifalarni belgilab oladilarki, buni quyidagicha ifodalash mumkin:

mustaqil faoliyat olib borishda muhim hisoblangan mustaqil ta'lim, zamonaviy voqelik va ularga bo'lgan ijobiy munosabat;

tanlagan yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib borish, talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan tayyorlarlik davridagi kasbiy mustaqil ta'lim;

o'quv fanlarini yanada chuqurroq o'rganishga, shaxsiy-hayotiy rejallarga mo'ljallangan, shaxsiy qiziqish asosida yo'naltirilgan mustaqil ta'lim;

o'z iste'dodini va sevimli mashg'ulotlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan mustaqil ta'lim;

o'z xarakterini tarbiyalashga qaratilgan mustaqil ta'lim [2].

Mustaqil ta'lim – shaxsning rivojlanishida asosiy omil, uning kelgusi faoliyatida mustaqil ta'limlay olish xususiyatlarini tavsiflovchi bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim mazmuni mehnat xarakteriga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir etib, mustaqil ta'lim uchun imkoniyat topa olishiga bog'liq bo'ladi. Mustaqil ta'lim talabaning kelgusi faoliyati davomida o'z yo'lini belgilash vositasi, talaba o'z imkoniyatlarini baholay olishiga sabab bo'ladi. Talabada aniq ifodalangan ehtiyoj sezilmasa-da, biroq har bir insonda albatta, o'zini ma'nан qoniqtirishga, o'zligini namoyon etishiga, o'zining yaxshi mutaxassis sifatida mavjudligini namoyon qilishga bo'lgan nobiologik ehtiyoj bo'ladi.

Kredit-modul tizimida mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tajribasida mustaqil ta'limning tarkibiy qismlariga yetarlicha e'tibor berilishi kerakli yutuqlarga erishishimiz uchun dastlabki asos bo'lib xizmat qilishi va bu ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir qilishi, olib borilgan tadqiqotimizda o'z isbotini topdi (Qarang: 1-jadval).

1-jadval

Kredit tizimlarining mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tajribasi

AQSh	Buyuk Britaniya	O'zbekiston	Yaponiya
Talabalar semestr davomida 4-5 tadan ko'p bo'lмаган fanlarni o'рганадilar	CATSda akademik yil 1200 shartli o'quv soati = 120 kreditga, 1 kredit esa 10 o'quv soatiga teng.	Oliy ta'lim muassasalarida 1 kredit 25-30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng	Bir akademik yil uchun 60 kreditni tashkil etadi (semestrda – 30). UCTS kreditlar shkalasi faqat konvertatsiyalash shkalasi sifatida ishlatalidi.
Kursning normal yuklamasi taxminan 15 kredit soatni tashkil qiladi	Auditoriya mashg'ulotlarini, asosiy amaliy, loyihalar ustidagi ishlarni, mustaqil ta'limni, imtihonlarga tayyorlanish va topshirishni o'z ichiga oladi.	Talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda – 40-50% auditoriya soati, 50-60% mustaqil ta'lim soatiga.	UCTS tizimi institutlar o'rtaida faqat talabalarning yuklamalari va baholarini tan olish va o'tkazish maqsadida ishlab chiqilgan
Bakalavr darajasini olish uchun kamida 4 yilda 120 kredit yig'ish belgilangan	Britaniya universitetida bakalavr darajasini olish uchun talaba 3 yil ta'lim olishi hamda 360 ingliz kreditini yig'ishi talab etiladi.	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi belgilangan.	Talabaning o'zi shaxsiy xorijiy ta'lim dasturini tuzadi. Talaba dasturni tuzib bo'lganidan so'ng o'qishga jo'natuvchi va qabul qiluvchi institutlar muayyan dasturdagi fanlarni o'rganish uchun talabaga beriladigan kreditlarga nisbatan

			o‘zlarining roziliklarini ma’lum qilishadi.
Talabalarning bilimlarini raqamli va harfli baholash eng ko‘p qo‘llaniladi. Raqamli baholash. 1 dan 100 ballgacha bo‘lgan ballarni qo‘llash amaliyoti. Harfli baholash. An’anaviy harfli baholashda A, B, C, D, F alifbo harflari hamda + va — belgilardan foydalaniladi.	Talaba 1 ta modulni tamomlashi uchun 150 soatga teng yuklamani bajaradi.	Talaba o‘zining shaxsiy ta’lim traektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o‘zlashtirishi shart.	Yaponiyalik talaba bakalavr darajasini olishi uchun universitetda 4 yil o‘qishi kerak, undan 2 yili – keng umumta’lim tayyorgarlik, keyingi 2 yil – mutaxassislik bo‘yicha ta’lim. Fanlar majburiy va tanlov fanlariga bo‘linadi. Bir sinov birligi talaba semestr davomida biror fanni har haftada bir soat o‘qishini va bakalavr darajasini olishi uchun 146 sinov birligi to‘plashi zarurligini anglatadi.

Oliy ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi ma’lum maqsad asosida va ma’lum tartibda talabada quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

talabalarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga ola bilish;

talabalar bilan emotsiyal aloqa o‘rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta’sir etish;

o‘qituvchi o‘z sohasi bo‘yicha umumiyligi pedagogika, psixologiya, mehnat gigiyenasi va fiziologiyasi, pedagogik va texnologiya fanlari bo‘yicha savollar ro‘yxatini mustaqil o‘rganib chiqishlari lozim bo‘ladi;

o‘qituvchi o‘z pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo‘llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik obyektlarni to‘g‘ri tanlab faoliyat ko‘rsatishi kerak;

o‘qituvchi aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual yoki jamoa bilan birga o‘z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq;

o‘qituvchi o‘z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etishi va ma’lum maqsadga yo‘naltirishi zarur.

Buning uchun u:

ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo‘lishi;

ijodiy izlanishlar samaradorligi o‘qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lishini nazaridan qochirmsaligi muhim [3].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘lg‘usi mutaxassisning mustaqil ta’lim olishi yangicha ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib turibdi. Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar aniq shakllanganligi, ularning mazmuni dasturga muvofiq, talabalarni fan muammolarini hal qilishning zamonaviy usullari bilan tanishtirishi kerak. Topshiriqlarning mazmuni mavjudlik tamoyiliga (oddiydan murakkabga), shuningdek, belgilangan mavzuni mustaqil o‘rganishga ajratilgan vaqt birligiga mos kelishi hamda bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligi ham kerak. Bu

186 sharoitlarda amalga oshirilgan mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarni mustaqil fikrlash ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi va fan yuzasidan bilimlarini mustahkamlashga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sod "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i.
2. Eshonqulova Sh.E. // Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish // Ped. fan. falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. -T.: 2022. -B.19.
3. Axmedova D.E. // Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning nazariy asoslari // Ped. fan. falsafa doktori (PhD) diss. -T.: 2024. -B.48-52.